

BO'LAJAK O'QITUVCHI-DEFEKTOLOGLARGA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI OLIB BORISHNI O'RGATISH KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIK KO'RISH OMILI SIFATIDA

Pulatova Dilfuza Azamkulovna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak o'qituvchi-defektologlarning kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirishda ilmiy-tadqiqot faoliyatining o'rni ko'rib chiqilgan. Talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'lishi davr talabi ekanligi asoslangan. Ilmiy tadqiqot faoliyatining samaradorligi o'quv jarayonining tashkil etilishiga bog'liqligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchi-defektologlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga hissa qo'shadigan ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish yo'nalishlari belgilab berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchi-defektologlar, kasbiy tayyorgarlik, tadqiqot ishi, ilmiy tadqiqot, ta'lim, tadqiqotchilik ko'nikmasi, malaka, kasbiy kompetentsiya.*

KIRISH

Oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida bo'lajak mutaxassislarning o'z yo'nalishlarida tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi oliy ta'limni rivojlantirishning strategik vazifalari qatorida keltirilgan³⁰. Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishning asosida shaxsda shakllangan tadqiqotchilik qobiliyati turadi. Tadqiqotchilik qobiliyatining dastlabki sifatlari mutaxassisning sohaga oid muammolarni aniqlay olishi, kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi, topilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi, tanqid va tahlil qilish asosida muammoni hal etishga ijodiy yondasha olishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining o'z yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha nufuzli tashkilotlarda ishlab ketishlari ko'p jihatdan ularning professional malakalari bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois, biz oliy ta'lim o'quv jarayonida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirishda samarali natijalar beruvchi omillarni aniqlashni maqsad qilib qo'ydik. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- ilmiy tadqiqotning afzalliklarini aniqlash (talaba nima uchun ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishi kerak?);
- o'quv jarayoni tashkiliy jihatlarining talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishini asoslash;
- ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanishga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash.

1. «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон қарори. - <https://lex.uz/docs/4545884>

Talabalarni ilmiy tadqiqotga yo'naltirishning samarali yondashuvlarini aniqlash borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Respublikamizda bu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati pedagogika va falsafa ixtisosliklariga tegishli ekanligini ta'kidlab o'tish o'rinli.

Jumladan, talaba yoshlarni ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish metodologiyasiga oid tadqiqotlar "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani doirasida N.A.Shermuxeimedova, M.N.Abdullaeva, A.A.Azizqulov, Z.Davronov, B.Qodirov, I.Saifnazarov, G.V.Nikitchenko, B.U.Qosimovlar tomonidan nashr qilingan o'quv-ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. O'quv jarayonida pedagogik texnologiyalar vositasida talabalar qobiliyatlarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish bo'yicha R.Djuraev, R.Ishmuxeimedov, D.Ergashev, R.Mavlonova, B.S.Abdullaeva, Sh.Abdullaeva, X.Xudayqulov, G.Fuzailova, Yu.Asadov, D.Maxmudova, Z.Axrorova, M.Usmonboeva, S.N.Allayarova kabilar tadqiqotlar olib borgan.

Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilishning samarali yondashuvlari doirasida MDH olimlaridan B.I.Prujnin, O.I.Logashenko, A.M.Novikov, B.V.Petrushin; talabalarining psixologik xususiyatlari – qobiliyat va qiziqishlariga ko'ra ilmiy faoliyatga yo'naltirish bo'yicha T.L.Shaposhnikova, L.I.Lomakina, V.V.Belova, G.N.Prozumentova; ilmiy faoliyatning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga oid L.D.Stolyarenko, V.N.Mixelkevich, N.V.Kuzmina, E.M.Mogalyuk, E.E.Pashoxonova; o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning zamonaviy shakllari doirasida V.A.Slastenin, N.A.Soloveva kabilar tadqiqotlar olib borgan.

N.A.Abramova tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchi-defektolog integrativ kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uning keyinchalik korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim jarayonini tashkillashtirish va kommunikativ aloqalarni modellashtirishda ijodiy yondosha olishini, shuningdek, o'quv materiali, uning informatsion tuzilishini mantiqiy tahlil qilishni ta'minlashini o'rganganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorijiy olimlardan V.Lamanauskas, Dalia Augienė, M.Healey, F.Caena, D.Nezvalova, S.Aaron, E.Abeyta, J.Accuosti, V.Afshar, L.Baer, J. McCormick, E.Barbera, B.Gros, L.Ivanitskaya, L.Boyes, I.Reid, K.Brain, J.Wilson, D.Brewer va boshqalarning tadqiqotlarida talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va qobiliyatlarni yuzaga chiqaruvchi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari o'rganilgan.

ASOSIY QISM

Talabalarining ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishidagi afzalliklar. Ushbu masalani yoritishdan avval qisqacha "ilmiy tadqiqot" tushunchasi mazmuniga to'xtalib o'tsak. Manbalarda qayd etilgan ayrim ta'riflarni keltiradigan bo'lsak, "Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlar va nazariyalarni aniqlash jarayoni", "Har qanday ilmiy tadqiqot bu – bilishning maxsus tashkil qilingan jarayoni bo'lib, unda voqelik haqidagi nazariy bilimlar o'rganiladi, o'zlashtiriladi va tizimga solinadi". YA'ni, ilmiy tadqiqot bu – yangi bilimlarni qidirish, dalillarga asoslangan holda maqsad sari tizimli izlanishlar

olib borishdir. Birmuncha torroq ma'noda tadqiqot bu - natijasi ilmiy ish bilan yakunlanadigan narsa va hodisalarni o'rganuvchi ilmiy usul yoki jarayondir. Umuman olganda, ilmiy tadqiqot – jamiyatni barqaror rivojlantiruvchi muhim strategik hodisa bo'lib, u aynan uzluksiz ta'limning oliy ta'lim bosqichida kompleks tarzda shakllanadi va rivojlanadi. Oliy ta'limda tahsil olish jarayonida har bir talaba fanlarni o'zlashtirish orqali ilmiy tadqiqotning muayyan shakllarini bajaradi. Jumladan, referat, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash o'ziga yarasha tadqiqot olib borishni talab etadi. Sanab o'tilgan ilmiy-ijodiy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lganligi bois, erkin ilmiy tadqiqot hisoblanmaydi. Ilmiy ijodkorlik qobiliyatiga ega talabalar o'quv jarayonidagi ushbu vazifalarni bajarish davomida berilgan tadqiqot ishlari (referat, kurs ishi, BMI, MD va hokazo)ni haqiqiy ijodiy jarayonga aylantira olishi bilan tadqiqotchilik ko'nikmalarini namoyon qiladilar. Bu esa, erkin ijodiy tadqiqotning dastlabki ko'rinishlari – ilmiy maqola va tezislarning yaratilishiga sabab bo'ladi.

S.N.Allayarovanning ilmiy izlanishlari natijasida tadqiqotchilik ko'nikmalari talabalarining quyidagi sifatlarida namoyon bo'lishi aniqlangan:

- mutaxassislik bo'yicha chuqur bilim;
- tanqidiy va tahliliy fikrlash (voqea-hodisalar mohiyatini sabab va oqibat dialektikasi asosida tushunish);
- nostandart, kreativ mulohaza yuritish;
- sohaga oid muammo va muammoli vaziyatlarni anglash;
- amaliy muammolardan ilmiy muammolarni shakllantirish;
- kerakli manbalarni qidirib topish;
- topilgan manbalarni qayta ishlash;
- o'zlashtirilgan bilimni yangicha taqdim eta olish;
- ilmiy tadqiqot olib borishdan maqsadga ega bo'lish;
- mas'uliyat va mehnatsevarlik;
- tartiblilik, vaqtdan unumli foydalanish
- maqsadga erishishda qat'iyatlilik va hokazo.

Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari ularni yuzaga kelayotgan nazariy va amaliy muammolarni oqilona va samarali hal eta oladigan ijodkor shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak mutaxassislarda tadqiqotchilik ko'nikmalarining bo'lishi – yuqori malakali kadrlarga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki, biror bir sohada tadqiqotchi kadrlar faoliyat yuritmas ekan, bu sohada yangiliklar, rivojlanishlar, samaradorlik ko'rsatgichlari haqida gap bo'lishi mumkin emas³¹. SHu boisdan ham bo'lajak o'qituvchi-defektologlarning ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishlari muhim ahamiyatga ega.

³¹ Healey, M. (2005). Linking research and teaching to benefit student learning. Journal of Geography in Higher Education, 29 (2), 183-201.

Ta'kidlash lozimki, tadqiqotchilik malakalari o'z-o'zidan rivojlanmaydi, qobiliyat va imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun oliy ta'lim muassasasida maqsadga muvofiq o'quv jarayoni tashkil qilingan bo'lishi lozim.

Hozirgi rivojlangan zamon talabi o'quv jarayonini shunday tashkil qilishni nazarda tutadiki, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mustaqil ijodiy ish ko'nikmalari va malakalarini egallash, ulardan foydalanish, tadqiqot ko'nikmalarini egallash, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish imkonini bersin. Bo'lajak o'qituvchi-defektolog integrativ kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uning keyinchalik korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim jarayonini tashkillashtirish va kommunikativ aloqalarni loyihalashtirishda ijodiy yondosha olishini, shuningdek, o'quv material, uning informatsion tuzilishini mantiqiy tahlil qilishni ta'minlaydi.

Bo'lajak defektologlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'yicha ishlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv jarayoniga kiritilgan tadqiqot faoliyati (o'quv fanlarini o'rganish jarayonida turli xil mustaqil nazariy va eksperimental ishlar: (muammoli pedagogik vaziyatlarni loyihalashtirish, o'quv keyslarini ishlab chiqish, nostandart muammolarni hal qilish va hk.);

- ta'lim jarayonini to'ldiradigan tadqiqot faoliyati (mini-tadqiqotlar, ta'lim loyihalarini amalga oshirish, ilmiy tadbirlarda ishtirok etish va boshqalar orqali o'quv jarayonini individuallashtirish);

- o'quv jarayoniga parallel ravishda ilmiy-tadqiqot faoliyati (tadqiqot va ijodiy loyihalarda, mavzuli olimpiadalarda, ilmiy konferentsiyalarda, tanlovlarda, xalqaro tadqiqot dasturlarida va boshqalarda ishtirok etish).³²

Tadqiqotchilik qobiliyatiga peedagog-tadqiqotchi tayyorlashning yetakchi xususiyati sifatida qaralishi kerak. Tadqiqotchilik qobiliyatlarining quyidagi guruhlarini ajratish mumkin: diagnostik, operativ-gnostik, informatsion, konstruktiv loyihalash, kommunikativ qobiliyatlari³³. Kasbiy tayyorgarlikda defektolog talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda loyihaviy ta'lim muhim rol o'ynaydi. Loyihaga asoslangan ta'lim pedagogik texnologiya sifatida ijodiy salohiyatga ega bo'lgan izlanish, tadqiqot, faol metodlar to'plamidir³⁴.

Oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining eng muhim shakli bo'lgan talabalarining mustaqil ishi o'qitishga muammoli-izlanish xarakterini beradi, bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining shaxsga yo'naltirilganligiga hissa qo'shadi.

Biz keyingi bosqichlarda bo'lajak o'qituvchi-defektologlarning kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirishda ilmiy-tadqiqot faoliyatining rolini aniqlash uchun tadqiqot o'tkazish, asosiy usullar sifatida so'rovnoma va intervyu qo'llashni (taklif etilgan savollar talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarining ahamiyati, uning kasbiy kompetensiyalarni

³² Ланн, 2012, 96–100 bet.

³³ Andreev, 1981, b. 67

³⁴ Larina, 2019, b. 166

shakllantirishga ta'siri to'g'risida tushunchalarni ochib berishga va ilmiy faoliyatda talabalar uchun qiziqarli tomonlarni aniqlashga qaratilgan) maqsad qilib oldik.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universitetining Pedagogika fakulteti "Maxsus pedagogika" kafedrasida an'anaga aylantirilgan "Ustoz-shogird" ish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bir professor-o'qituvchiga 3 nafar magistr va 10 nafar bakalavr talabalar birlashtirildi. Ushbu turda olib borilgan hamkorlikdagi ish natijasida 30 ga yaqin magistr va stajor-o'qituvchilar, 100 dan ortiq bakalavr talabalari ilmiy-tadqiqot ishlari (maqola va tezislari) bilan Respublika va Xalqaro konferensiyalarda, jumladan, Maxsus pedagogika yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichida ta'lim olayotgan Z.Karimovning 2022-yil mart oyida "Journal of educational discoveries and lifelong learning" xalqaro jurnalida "Organization of innovation activities of teachers of multidisciplinary preschool education in an educational cluster" nomli maqolasini chop etildi. Ushbu magistr kafedra o'qituvchisi S.J.Achilova bilan hamkorida 2022-yil aprel oyida o'tkazilgan "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy-amaliy onlayn konferensiyada "The value of the educational cluster in a multidisciplinary preschool organization" maqolasi bilan qatnashdi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining kasbiy faoliyatga qiziqishni oshirishga, psixologik-pedagogik madaniyat: bilim olish, korreksion pedagogika sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish; tadqiqot mavzusi bo'yicha zamonaviy adabiyotlarni o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish; diagnostika ko'nikmalarini egallash; psixofizik rivojlanishining alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan korreksiya va rivojlantirish ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalari; muayyan didaktik vazifani hal qilishga qaratilgan eng yaxshi metodlarlar, shakllar va o'qitish vositalarini tanlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish darajasini oshirishga ta'sirini qayd etadilar.

Ilmiy-tadqiqot ishlari talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilib, talabalarda o'ziga ishonchning ortishi, kreativlikning rivojlanishi va o'z imkoniyatlarini chuqurroq anglashlarini ta'kidladilar. Shuni alohida ta'kidlash muhimki, jamiyat talabalaridan kelib chiqib, maxsus ta'limni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ortib borayotganini, maxsus ta'limning aspektlari shaxsga, ijtimoiy-hissiy ta'limga yo'naltirilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchi-defektologlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish jarayonida ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish, bizning fikrimizcha, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- mustaqil izlanish tadqiqot faoliyatiga qodir talabalarni aniqlash, ularning ilmiy qiziqishlarini shakllantirish;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini zamonaviy metodologik baza bilan ta'minlash, talabalarda ilmiy faoliyatning dastlabki ko'nikmalarini shakllantirish;
- universitetda o'qishning butun davri davomida ilmiy ish bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlash;

- talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini zamonaviy axborot bilan ta'minlash imkoniyatini ta'minlash;
- talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish;
- talabalarining xalqaro aloqalarini, shu jumladan talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari tizimida rivojlantirish;
- talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- talabalar ishlarini ilmiy jurnallarda chop etish;
- mustaqil izlanishga, magistratura, aspiranturaga kirishga qodir talabalarni tayyorlash.

Shunday qilib, talabalar bilan puxta o'ylangan tadqiqot ishlari ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son qarori.
- <https://lex.uz/docs/4545884>
2. Allayarova S.N. Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirishning dolzarb masalalari. *Замонавий таълим / современное образование* 2021, 5 (102). 17-25 b.
3. Абрамова Н.А. Профессиональное становление будущего педагога-дефектолога в ходе научно-исследовательской деятельности // *Научно-методический электронный журнал «Концепт»*. 2015. Т. 26. 101–105 b. URL: <http://e-koncept.ru/2015/95305.htm>.
4. Андреев В.И. Эвристическое программирование учебно-исследовательской деятельности. Москва : ВШ, 1981. 240 b.
5. Жук О.Л. Педагогические основы самостоятельной работы студентов: пособие для преподавателей и студентов. Минск : РИВШ, 2005. 112 b.
6. Лапп Е.А. Формирование исследовательской компетентности будущих дефектологов // *Вестник ЧГПУ*. 2012. № 4. 94–103 b.
7. Ларина И.П. Роль проектно-исследовательской деятельности в развитии творческих способностей будущих дефектологов // *Проблемы современного педагогического образования: сборник научных трудов*. Ялта: РИО ГПА, 2019. Вып. 62. Ч. 2. 342 с. 166 –169b.
9. Сычкова Н.В. Исследовательская подготовка студентов университета: Монография. Магнитогорск : МаГУ, 2002. 205 b. 81
9. Шаховская С.Н. К проблеме качества подготовки логопедических кадров // *Практическая психология и логопедия*. 2007. № 1. 11–12 b.
10. Pulatova, D. A. (2022). THE USE OF ICT IN CLASSES ON THE DEVELOPMENT OF AUDIO PERCEPTION AND FORMATION OF PRONUNCIATION IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 441-445.